



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 1 (03)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

1

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Tursunov A.M. O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
Abdulazizov A.A. Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
Jurayev D.A. Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taʼsir etuvchi omillar.....	15
Suyarov Sh.S. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
Кариева Л.С. Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
Axtamov A.U. Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka taʼsiri xususida.....	25
Гафуров А.Б. Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
Абиткариев А.М. Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
Abdullayev D.G’. Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
Abdullayev M.G’. Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
Isakov A.Y. Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
Ashurova G.N. Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
Yo‘ldosheva M.F. O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
Қулматов А.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmi.....	61
Babayev A.N. Yoshlar bandligini taʼminlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
Sharipov H.A. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
Турдиева Я. Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
Vaxidov A.K. Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
Gaymatova D.G’. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
Pardayev E.E. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
Ibragimova S.A., Muradov Sh.D. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
Адилов Б.Б. Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
Yoqubova Z.T. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi munosiblikni taʼminlashning konseptual asoslari.....	101
Saidaxmedova N.I., Aripov A.S. Oliy taʼlim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
Abduvovyeva X.Sh. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga taʼsirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
Умаров А.А. Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибadorligini oshirish...	116
Shoraximova Z.N. «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	120
Умурзакова З.С. Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
Karimov X.O. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

Aхунов М.А. Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
Ахмаджонов С.С. Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
Abdullayeva Sh.А. Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralari boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
Дусанов С.М. Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
Мамаражобов А.С. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
Nigmatova D.Z., Amanov E.G’. Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	157
Ikromjonova M.U. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
Madaminjonov A.O. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
Jamoliddinova S.S. Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
Akbaraliyev A.E. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
Эрматова С.И. Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
Boyev X.I., Adilov B.B. Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
Raxmonova N.A. Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
Якубова Д.М. Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y. Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
Matyoqubova D.O. Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
Rahmatullayeva F. Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
Mamajonov L.A. Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
Давруков Ф.У. Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
Убайдуллаева Н.Р. Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
Abdullayev A.A. Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
Alimov O.N. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
Mamajonova N.A. Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
Sanaqulova A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
Nazarov N.N. Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
Sanaqulova A., Ochilova M. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
Umarov I.Y. Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

Scientific and Cultural organization(UNESCO) [Electronic resource]: UIS Statistics in Brief. Education (all levels) profile – France, Germany, Sweden, USA / United Nations Educational, Scientific and Cultural organization (UNESCO). UNESCO Institute for Statistics, 2011. – Access mode : <http://stats.uis.unesco.org>

5. World Bank. Education Finance Overview, 2023.
6. Федотов А.В., Методология оценки и повышения эффективности государственной системы высшего профессионального образования: Автореф. дис. докт.экон. наук (08.00.05). — СПб., 2002. — 41 с,
7. OECD. Education Policy Outlook, 2022.
8. OECD. School Autonomy and Accountability Report, 2021.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармони.
10. Friedman, M. School Choice and Voucher Funding Models, 2020.
11. Hanushek, E. Performance-based Funding: Evidence and Practices, 2021.

UDK:339

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING TASHQI SAVDO FAOLIYATI NATIJALARINI REYTINGLASH VA UN DAN FOYDALANISH MASALALARI

ВОПРОСЫ ОЦЕНКИ И ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ ВНЕШНЕТОРГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ ОРГАНИЗАЦИЙ

ISSUES OF RATING AND USING THE RESULTS OF FOREIGN TRADE ACTIVITIES OF BUSINESS ENTITIES

Mamarajabov Abdisamad Saidmurot o‘g‘li
Bojxona qo‘mitasining Bojxona instituti

Annotatsiya

Mazkur maqolada tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini barqarorlik reytingida aks ettirish va barqarorlik reytingining tashqi savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarga ahamiyati yoritilgan bo‘lib, unda inobatga olinishi lozim bo‘lgan bir qator ko‘rsatkichlar to‘g‘risida fikr va mulohazalar bildirilgan. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdoga oid faoliyati ko‘rsatkichlari tahlili reyting tizimi uchun dolzarbligi hamda buning natijasida ular bir qancha imtiyoz va imkoniyatlarga ega bo‘lishi, bu imtiyoz va imkoniyatlar ularning moliyaviy barqarorligini ta‘minlash uchun ahamiyatli ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: tashqi savdo faoliyati, tadbirkorlik subyektlari, vakolatli iqtisodiy operator, barqarorlik reytingi, reyting mezonlari, imtiyozlar, kichik tadbirkorlik subyektlari.

В данной статье рассматривается отражение результатов внешнеэкономической деятельности субъектов предпринимательства в рейтинге устойчивости, а также раскрывается значение рейтинга устойчивости для предпринимателей, осуществляющих внешнеторговую деятельность. В статье изложены мнения и соображения по ряду показателей, которые необходимо учитывать при формировании рейтинговой системы. Научно обоснована актуальность анализа показателей внешнеторговой деятельности субъектов предпринимательства для рейтинговой системы, а также показано, что в результате они могут получить ряд льгот и возможностей, имеющих важное значение для обеспечения их финансовой устойчивости.

Ключевые слова: внешнеторговая деятельность, субъекты предпринимательства, уполномоченный экономический оператор, рейтинг устойчивости, рейтинговые критерии, льготы, субъекты малого предпринимательства.

This article examines the reflection of the results of foreign trade activities of business entities within a sustainability rating system and highlights the importance of such a rating for entrepreneurs engaged in foreign trade. The study presents opinions and considerations on a number of indicators that should be taken into account in the rating process. It is scientifically substantiated that the analysis of foreign trade performance indicators of business entities is highly relevant for the rating system, and that, as a result, business entities may gain various privileges and opportunities. These privileges and opportunities play a significant role in ensuring their financial sustainability.

Keywords: foreign trade activity, business entities, authorized economic operator, sustainability rating, rating criteria, incentives, small business entities.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan tadbirkorlikni rivojlantirish va ularni qo‘llab quvvatlash maqsadida soliq va boshqa majburiy to‘lovlarni o‘z vaqtida to‘lab, qonunchilik talablarini buzmaganda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlariga yanada qulay shart-sharoitlar yaratish va ularni rag‘batlantirishga juda katta e‘tibor qaratilmoqda, bu borada bir qator muhim farmon va qarorlar qabul qilinmoqda[1]. Bu esa, o‘z navbatida iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalaridagi halol tadbirkorlik subyektlarida, birinchidan, mamlakatda qabul qilingan qonunchilik hujjatlariga so‘zsiz amal qilish va unga itoatkorlik tuyg‘usini vujudga keltirsa, ikkinchidan, ularga davlat tomonidan taqdim etilayotgan turli imtiyoz va preferensiyalardan keng ma‘noda maqsadli foydalanishlariga imkon beradi, uchinchidan, mamlakatning iqtisodiy o‘shishiga, davlatlararo global tashqi savdo munosabatlarning yanada jadallashuviga, o‘zaro halol raqobatga asoslangan iqtisodiy rivojlanishiga, vanihoyat O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga to‘laqonli a‘zo bo‘lishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu sanab o‘tilgan maqsadlarga erishish uchun bojxona tizimida ham halol tadbirkorlik subyektlarini yanada qo‘llab-quvvatlash uchun ochiq va shaffof tizim yaratish, ushbu tizimda adolatli mezonlar qo‘llanishi, mezonlar uchun haqqoniy ko‘rsatkichlardan foydalanilishi obyektiv zaruriyat. Belgilab qo‘yiladigan mezonlar bergan natija ma‘lum bir yo‘nalishda masalan, tovar va transport vositalarini chegaradan olib o‘tishda, ularni rasmiylashtirishda yoki bojxona to‘lovlarni to‘lashda biror imtiyoz va yengillik berishi hamda shu kabi huquqlarni bekor qilishga sabab bo‘lishi reyting tizimining subyektlar orasida keng yoyilishiga olib keladi.

So‘nggi yillarda ko‘plab tarmoqlarda ular faoliyatining o‘ziga xos jihatlari va xususiyatlaridan kelib chiqib, tadbirkor va boshqa subyektlarning reytingi aniqlanib, baholanmoqda. Mazkur tizimlar tadbirkorlik subyektlarining o‘z faoliyatini haqiqatda qanday darajada ekanligini, ustun jihatlari hamda kamchiliklari nimada ekanligini ko‘rsatmoqda. Shunday bo‘lsa-da, hech bir tizim tashqi savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlarning faoliyatini to‘liq qamrab olmaydi hamda faoliyat ko‘rsatkichlaridan foydalanmaydi.

Bundan tashqari, mazkur tizim barcha tadbirkorlik subyektlari orasidan ularni halol va nohalol toifaga ajratish orqali nohalol tadbirkorlarga nisbatan ularning noqonuniy xatti-harakatlariga adolatli baho berish, halol tadbirkorlarga esa qonunlarda nazarda tutilgan imtiyoz va preferensiyalarni avtomatik tarzda taqdim etish mexanizmini yaratish tashqi savdo faoliyati bilan shug‘ullanishni yanada oson, qulay va o‘zaro barcha uchun foydali bo‘lishiga yordam beradi.

Reyting aniqlash, korxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari asosida ularning faoliyatini tahlil qilish orqali reytinglar bo‘yicha xorij iqtisodchi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ular jumlasiga Altman E.I.[1], Artemenko V.T., Астапова В.В.[2], Балабанов И.Т.[3], Баканов М.И., Шеремет А.Д.[4], Банк В.Р., Банк С.В., Тараскина А.Б.[5], Донцова Л.В., Никифорова Н.А.[6] va boshqalarni kiritish mumkin. Bu yo‘nalishda mamlakatimiz olimlari ham bir qator izlanishlar olib borib, o‘zlarining yaratgan darslik va monografiyalarida hamda e‘lon qilingan maqola va tezislarida o‘rganilgan. Jumladan, Vahobov A.V., Ibrohimov A.T., Pardayev M.Q., Isroilov J.I., Rahimov M.Y.,

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” jurnali 1-son 2026 yil

Sagdillayeva Z.A. va boshqalar tomonidan xo‘jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy holatini reyting asosida baholashning ayrim jihatlari o‘rganilgan.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda kichik biznes va startaplarga e‘tibor kuchaymoqda hamda ularga bir qancha qulaylik va imtiyozlar yaratilmoqda. Buning ahamiyatini ularning jami mahsulot (ishlar,xizmatlar) importidagi ulushi tahlilida ham ko‘rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

2016-2024-yillarda O‘zbekiston Respublikasi import xajmida kichik tadbirkorlarning ulushi, viloyatlar kesimida [7]

Viloyat/yil	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	22,4	42,5	60,8	70,7	71	57,6	44,1	58	70
Andijon viloyati	15,6	18,1	16,7	15,2	12,9	13,1	11	16,2	18,6
Buxoro viloyati	16	14,7	40	50,9	46,7	57,3	48,3	53,4	60,8
Jizzax viloyati	81,4	86,3	93,3	96,9	93,4	84,4	87,5	59,6	24,1
Qashqadaryo viloyati	14,6	17,7	24,6	68,7	52	58,6	50,2	73,8	60,7
Navoiy viloyati	10,8	18,3	15,3	65,1	35,1	26	34,5	36,3	42,3
Namangan viloyati	90,9	86,9	46,8	83,9	76,3	78,6	71,9	70,4	68
Samarqand viloyati	52	60	69,7	69,7	45,9	38	37,2	44,7	39,9
Surxondaryo viloyati	64,7	83,7	91	75	92,9	89,6	72,6	87,5	90,9
Sirdaryo viloyati	87,5	91,5	93,3	76	69	66,5	72,1	72,2	84,4
Toshkent viloyati	36,3	40,5	43,3	48,1	45,8	38,3	48,4	54	53,5
Farg‘ona viloyati	46,7	55,5	54,7	77,4	73,8	72,6	72,5	81,5	82,7
Xorazm viloyati	90	94	96	70,1	71,1	74,7	35	40,2	54
Toshkent shahri	54,6	57,6	66,5	62,1	54	48,9	48,8	47,4	45,1
Jami:	46,8	53,6	56,2	61,6	51,7	45,2	49,5	50,5	49,8

Ushbu jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, mamlakatimizda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi so‘nggi 9 yilda 46.8 foizdan 49.8 foizga o‘sgan hamda bu ko‘rsatkich so‘nggi bir yil ichida 4 foizga oshib, 2025-yilda 53,6 foizni tashkil etgan. Jami eksportdagi ulush esa, 2016-yilda 26 foizdan 2024-yilda 34,1 foizga yetgan.

Albatta mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat shuni ko‘rsatmoqdaki, kichik biznesga e‘tibor yildan yilga ortmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Farg‘ona va Toshkent viloyatlarida ko‘rishimiz mumkin. Jami importdagi kichik biznesga to‘g‘ri keladigan ulush miqdori 10 yil oldingi ko‘rsatkichga qaraganda 4-5 barobarga ko‘paygan.

Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining faoliyati rivoji albatta rag‘batlantirishlar va imtiyozlarga bog‘liq. Sabab sifatida shuni keltirishimiz mumkinki, kichik tadbirkorlikda ko‘p moliyaviy qiyinchiliklar bo‘ladi, byurokratik to‘siqlarda katta tadbirkorliklar bilan bellasha olmaydi hamda davlat tomonidan ko‘rsatiladigan yordamlarga muhtoj bo‘ladi.

Davlat tomonidan tadbirkorlik subyektlariga soliq va bojxona imtiyozlari, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar, kafolatlar va boshqa turdagi imtiyozlar berilishi mumkin. Lekin muammo imtiyozda yoki uning qanday darajada ekanligida emas, aynan uning berilishi jarayonida yuzaga kelmoqda. Barcha sohalarda qo‘llaniladigan hatto hayotda ham qo‘llaniladigan, amalda ish berayotgan yagona tizim mavjud. Bu tizim obyektning faoliyati tarixiga, amalga oshirgan ishlari, erishgan yutuqlari va yo‘l qo‘ygan kamchiliklaridan kelib chiqib qaror qabul qilishni o‘z ichiga oladi. Oddiy bir hayotiy misolga to‘xtalsak, bir fuqaro ikkinchi fuqaroga agar uni avaldan yaxshi bilsa qarz beradi, avvalgi qarzlarini o‘z vaqtida qaytarganligi, kechiktirmaganligi, o‘rtada shunga bog‘liq nizo

kelib chiqmaganligi va shu kabi jihatlarini inobatga oladi. Hozirgi kunda bank kreditlari ham xuddi shu mantiqiy ketma-ketlikda mijozni o‘rganmoqda hamda kreditlar ajratmoqda.

Davlat tomonidan ajratiladigan imtiyozlar ham tadbirkorning faoliyati tarixini inobatga olib, uning ko‘rsatkichlarini tahlil qilib, so‘ngra ma‘lum bir baholovchi model asosida taqdim etilishi lozim. Biroq, bu kabi yordam va imkoniyatlarni ham suiste‘mol qiluvchi tadbirkorlar ham mavjud. 2024-yilgi statistikalariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, “public.sud.uz” portali ma‘lumotlariga ko‘ra “Bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish” jinoyati bo‘yicha mamlakatimizda jami 227 ta sud ajrimi e‘lon qilingan[8]. Bu albatta kichik raqam emas.

Davlat tomonidan oddiy qoida qo‘llaniladi, ya‘ni halol tadbirkor rag‘batlantiriladi, nohalollari jazolanadi. Shunday bo‘lsa-da tadbirkorlik subyektlarini halol va nohalolga ajratish tizimi yetarlicha yo‘lga qo‘yilmagan. Barqarorlik reytingi mezonlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, unda tadbirkorning qonunlarga itoatkorligini belgilab beruvchi bir nechta mezonlar mavjud:

- soliq hisobotlarining belgilangan muddatlarda taqdim etilishi;
- hisoblangan soliqlarning belgilangan muddatlarda to‘lanishi;
- elektron hisobvara-q-fakturalarni qonunchilikda belgilangan muddatlarda rasmiylashtirish holati;
- soliq organlari tekshiruvdan oldingi tahlil natijasida aniqlagan kamchiliklarning bartaraf etilish holati;
- soliqqa oid huquqbuzarliklar uchun ma‘muriy yoki jinoiy javobgarlik choralarining qo‘llangani;
- mahsulotlarning (tovarlarning, xizmatlarning) identifikatsiya kodlaridan noto‘g‘ri foydalanilgani;
- tadbirkorlik subyektlarining kreditorlik qarzdorligi mavjudligi;
- raqamli markirovkalash qoidalariga rioya etilishi[9].

Bu mezonlarning barchasi tadbirkorlar qoidaga amal qilayotganligi yoki qoidani buzayotganligi haqida ma‘lumot beradi va o‘z navbatida ball ayriladi yoki qo‘shiladi.

Tashqi savdo faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarining faoliyat natijalariga ko‘ra aniqlangan barqarorlik reytingi natijalari tahlil qilinganda, aniqlash uchun belgilangan mezonlarda tashqi savdoga oid ko‘rsatkichlar mavjud emasligi hamda buning oqibatida ushbu reyting natijalari import va eksport qiluvchilar uchun adolatli emasligi aniqlangan[10]. Shuningdek, tadbirkorlarning tashqi savdo ko‘rsatkichlari, ularning tashqi savdoga oid huquqbuzarlik holatlari, bojxona qarzdorliklari hamda eksport va import jarayonlarida vujudga kelgan kreditor va debitor qarzdorliklarning reytingda inobatga olinishi lozim bo‘ladi.

Dastlab, “barqarorlik reytingi” tizimining natijalari qanday foydalanilayotganligiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, soliq organlari tomonidan yuritiladigan ushbu reyting natijalariga asosan bir qator rag‘batlantirishlar taqdim etiladi:

- «AAA» toifadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatida soliq tekshiruvlari o‘tkazilmaydi, shuningdek, ushbu toifadagi tadbirkorlik subyektlariga qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rni qoplash bir kun muddatda tekshiruvlarsiz amalga oshiriladi;

- 4 va 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yuritayotgan «AA» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga bo‘lib-bo‘lib to‘lash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari bo‘yicha dastlabki to‘lov summasi 35 foizdan kam bo‘lgan hollarda qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida yillik foizlar hisoblanmaydi hamda bo‘lib-bo‘lib to‘lash muddati miqdoridan qat‘i nazar, 7 yil (teng ulushlarda) etib belgilanadi;

- «A» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga soliqlar bo‘yicha (qo‘shilgan qiymat solig‘i bundan mustasno) mavjud ortiqcha to‘lov summasini qaytarish uch kun muddatda amalga oshiriladi;

- «BBB» va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga tovarlarni import qilishda va tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishda to‘lanadigan qo‘shilgan qiymat solig‘i summalarini o‘zaro hisobga olish tartibi tatbiq etiladi [11].

Hozirgi vaqtda, tadbirkorlik subyektlariga shu kabi rag‘batlantirishlar faqat reyting tizimiga asosan taqdim etilmoqda. Biroq, ushbu reyting mezonlar ichki ishlab chiqaruvchi va xizmat

ko‘rsatuvchi korxonalar uchun ishlab chiqilgan hamda tashqi savdo faoliyatiga bog‘liq birorta ko‘rsatkichni o‘z ichiga olmagan. Shuningdek, boshqa yo‘nalish va sohalarda ham joriy etilgan reyting tizimlarining natijalaridan faol foydalanib, subyektlarga imtiyozlar yoki shu bilan birgalikda jazolar ham bermoqda.

Bojxona sohasida ham reyting natijalarini turli yo‘nalishlarda foydalanish mumkin bo‘ladi. Ularga quyidagilar kiritish mumkin:

- bojxona nazorati tartibotlarini kuchaytirish yoki yengillashtirish;
- to‘lov muddatlari yoki tartiblari bo‘yicha imtiyozlar berish;
- taqdim etiladigan hujjatlar tarkibi yoki muddati bo‘yicha;
- tekshiruvlarning hajmini ko‘paytirish yoki kamaytirish va boshqa yo‘nalishlar.

Hozirgi kunda amaldagi tartibga asosan, vakolatli iqtisodiy operator maqomiga ega bo‘lgan yuridik shaxslar quyidagi soddalashtirishlarga ega bo‘ladi:

- bojxona yuk deklaratsiyasi xavf darajasi past bo‘lganda avtorasmiylashtiruvdan, xavf darajasi o‘rta ko‘rsatkichga ega bo‘lganda bir soat davomida bojxona rasmiylashtiruvdan o‘tkazish;

- tashish yo‘nalishini belgilamaslik;

- bojxona to‘lovlari to‘lanishi ta‘minlanmagan holda, operatorning tovarlarini tovar kelib tushadigan joygacha yetkazib berish;

- bojxona to‘lovlari to‘lanishi ta‘minlanmagan holda, operatorning transport vositasida bojxona tranzitini amalga oshirish;

- operator tomonidan qo‘yilgan plombalarni davlat bojxona xizmati organlari tomonidan identifikatsiya vositalari sifatida tan olinishi;

- davlat bojxona xizmati organlari tomonidan vaqtni qisqartirish va bojxona operatsiyalarini o‘tkazish tartibini optimallashtirishga qaratilgan tajriba loyihalarida ustuvor ishtirok etish;

- bojxona to‘lovlari to‘lanishi ta‘minlanmagan holda, bojxona to‘lovlarini bo‘lib to‘lash va (yoki) muddatini o‘ttiz kalendar kunigacha kechiktirgan holda operatorning tovarlarini erkin muomalaga chiqarish;

- chet el tovarlari tashilayotganda bojxona hamrohligida kuzatib borishni qo‘llamaslik.

Xavfsizlik masalalari bo‘yicha operator guvohnomasi yuridik shaxsga quyidagi maxsus soddalashtirishlardan foydalanish huquqini beradi:

- Bojxona yuk deklaratsiyasi xavf darajasi past bo‘lganda avtorasmiylashtiruvdan, xavf darajasi o‘rta ko‘rsatkichga ega bo‘lganda bir soat davomida bojxona rasmiylashtiruvdan o‘tkaziladi;

- operatorning tovar va transport vositalarini chiqarib yuborish to‘g‘risida qaror qabul qilishda bojxona nazorati shakllari qo‘llanilmasligi, xavfni boshqarish tizimida belgilangan choralar bundan mustasno;

- bojxona to‘lovlari to‘lanishi ta‘minlanmagan holda, tovarlarni operator tomonidan guvohnoma olish uchun taqdim qilingan arizada ko‘rsatilgan manzil bo‘yicha operatorning binolari, ochiq maydonchalari va bojxona ombori hisoblanmaydigan joylarda bojxona nazorati ostida (sariq va yashil yo‘lakda — videokuzatuv tizimi ostida, qizil yo‘lakda bojxona xodimi ishtirokida) joylashtirish;

- bojxona organlari bilan kelishilgan holda, operatorning ochiq maydonlari va boshqa hududlarida tovarlarni chiqarish bilan bog‘liq bojxona operatsiyalarini amalga oshirish;

- bojxona ko‘rigini birinchi navbatda o‘tkazish;

- bojxona to‘lovlari to‘lanishi ta‘minlanmagan holda, bojxona to‘lovlarini bo‘lib to‘lash va (yoki) muddatini oltmish kalendar kunigacha kechiktirgan holda tovarlarni erkin muomalaga chiqarish;

- bojxona to‘lovlari to‘lanishi ta‘minlanmagan holda, tovarlarni chiqarishda ularning bojxona qiymatini shartli ravishda aniqlash;

- alohida hujjatlar (muvofiqlik sertifikat) mavjud bo‘lmaganda, tovarlarni (oziq-ovqat tovarlari va farmatsevtika mahsulotlari bundan mustasno) shartli ravishda chiqarish va hujjatlarni keyinchalik oltmish kalendar kun davomida taqdim etish;

- bojxona to‘lovlari to‘lanishi ta‘minlanmagan holda, bojxona yuk deklaratsiyasi taqdim etilgunga qadar tovarlarni chiqarib yuborish;

- tovarlarning TIF tovarlar nomenklaturasi bo‘yicha kodini aniqlash yuzasidan bojxona organi tomonidan tayinlangan ekspertiza yakunlangunga qadar tovarlarni bojxona to‘lovlari to‘lanishini ta‘minlash orqali shartli chiqarib yuborish;

- vakolatli davlat muassasalari bilan operatorlarni o‘zaro tan olish va maxsus soddalashtirishlarni birgalikda qo‘llashni nazarda tutuvchi hamkorlik loyihalarida ishtirok etish;

- bojxona organlari tomonidan bojxona operatsiyalarini amalga oshirish vaqtini qisqartirish va tartibini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshiriladigan tajriba loyihalari sinovlarida ishtirok etish;

- bojxona masalalarini muvofiqlashtirish va hal qilishda operatorga ko‘maklashish uchun bojxona xizmati organlarining mas‘ul xodimi ko‘magidan foydalanish;

- operator tomonidan qo‘yilgan plombalarni davlat bojxona xizmati organlari tomonidan identifikatsiya vositalari sifatida tan olinishi[12].

Yuqoridagi tartibotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, tashqi savdo jarayonlarida bojxona organlari tomonidan taqdim etiladigan turli imtiyoz va yengilliklar hech qanday reyting natijalariga asoslanmaydi hamda mavjud reyting tizimi esa hech qanday tashqi savdo ko‘rsatkichlarini qamrab olmagan. Bu holatni bir tadbirkor misolida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, turli vaziyatlar yuzaga keladi. Birinchisi, tadbirkor barqarorlik reytingida barcha mezonlarni bajarib, yuqori darajada baholangan, biroq tovarlarini import yoki eksport qilishda yengilliklardan foydalanishda cheklovlar yuzaga keladi. Ikkinchi vaziyat esa, tadbirkor eksport va import operatsiyalari davomida qonunga rioya qilgan va hech qanday qoidabuzarlik sodir etmagan, biroq barqarorlik reytingiga buning ta‘siri yo‘q.

Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo ko‘rsatkichlarini barqarorlik reytingida inobatga olinishi nafaqat tadbirkorlarga balki davlat va jamiyatga ham ahamiyatli bo‘lishi kutilmoqda. Tadbirkorlarga ularning reytingiga asosan biror imtiyozlar taqdim etiladigan bo‘lsa, davlat tomonidan ularni halol va nohalolga yoki holati barqaror va nobarqarorga ajratgan holda nazorat qilish hamda qo‘llab-quvvatlash osonlashadi. Jamiyat uchun esa, barcha jarayonning shaffofligi va adolatli ekanligi davlatga va tadbirkorlarga ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Altman E.I. Financial Ratios. Discriminant Analysis, and the Prediction of Corporate Bankruptcy // The Journal of Finance, Vol. 23, No. 4. (Sep., 1968), pp. 589-609.
2. Артеменко В.Г., Астапова В.В. Анализ финансовой отчетности: Учебное пособие. – М.: ОМЕГА-Л, 2011. – 270 с.
3. Балабанов И.Т. Основы финансового менеджмента: Учебное пособие. – 2-е изд., доп. и перераб. – М.: Финансы и статистика, 2010. – 512 с.
4. Баканов М.И., Шеремет А.Д. Теория экономического анализа: Учебник. – 4-е издание. – М.: Финансы и статистика, 2001. – 416 с.
5. Банк В.Р., Банк С.В., Тараскина А.Б. Финансовый анализ: Учебное пособие. – М.: ТК Велби, Издательство, 2007. – 344 с.
6. Донцова Л.В., Никифорова Н.А. Анализ финансовой отчетности: Учебник. – 6-е изд., перераб. и доп. – М.: Юрайт, 2013. – 462 с.
7. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sayti. (<https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/small-business-and-entrepreneurship-2>, tashrif sanasi: 22.01.2026 y)
8. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi rasmiy sayti. (<https://public.sud.uz>)
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.01.2024 yildagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 55-sonli qarori, (<https://lex.uz/docs/-6785751>)
10. Mamarajabov A.S. Bojxona maqsadlarida barqarorlik reytingi natijalari tahliliga oid. “Hududlarni sanoatlashtirish va innovatsion hududga aylantirish istiqbollari: xalqaro tajriba, muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. – 352b.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.01.2024-yildagi “Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-39-sonli qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.08.2020 yildagi “Vakolatli iqtisodiy operatorlar to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 500-sonli qarori.